Sportning gandbol turi bo'yicha talabalar o'rtasida musobaqalar tashkil etish va o'tkazish texnologiyalarini takomillashtirish	626
<i>Berdiyev Jamshid Baxriddinovich</i>	
18–21 yoshdagi talaba futbolchilarning musobaqa faoliyati jarayonida hujum harakatlarining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari	631
<i>Djemilov Temur Rasimovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yin vositalari orqali sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar samaradorligining ahamiyati.....	636
<i>Eshpo'latova Dilnoza Mamaniyoz qizi</i>	
Ota-ona bilan munosabatlarning maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga ta'siri.....	641
<i>Izaitullayeva Lazokat Eshimboyevna</i>	
Yosh futbolchilarning jismoniy tayyorligini oshirishda kompleks mashg'ulot tizimining samaradorligi.....	646
<i>Zaripova Farida Abdullayevna, Kamoliddinov Sharif Kamoliddin o'g'li</i>	
Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida sport gimnastikasi mashg'ulotlarini rejalashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari.....	650
<i>Mirzayev Dilshod Xamidovich</i>	
Mahalla – “jonli muzey”: 6–7 yoshli bolalarda milliy g'ururni lokal identifikatsiya orqali kuzatish modeli.....	654
<i>Omondavlatova Diyora Otabekovna</i>	
Yengil dizatriyalı bolalarda nutqning bo'g'in tuzilishi va uning shakllanish xususiyatlari.....	658
<i>Pardayeva Muxlisa Furqat qizi</i>	
Ochilmagan bo'z qalblar hazor.....	662
<i>Eshpulatova Saodat Maxmatovna</i>	



Speaking Fluency Development Based on CEFR Linguistic.....	665
Abdullayeva Charos Farkhodovna	
Integrating Visual-Based Activities in English Lessons for Primary School Pupils	670
Ataullayev Fazliddin	
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligiga ta'siri	674
Bovanova Umida Abdurahobovna, Ashurova Dildora Baxtiyor qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli	679
Bovanova Umida Abdurahobovna, Radjabova Gulchexra Xalbayevna	
Lotin tilini o'qitishda metodlarning qo'llanilishi va uning ahamiyati	683
Eshmurodova Shirin Oybekovna	
Nutqiy kompetensiyaning integratsion o'qitishda yangi metodlari va usullari	686
Fayzullayev Sarvar Ibrohim o'g'li	
Talabalarda affilativ motivatsiyani rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va komponentlari	689
Omonova Nilufar Omon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'lim samaradorligini oshirishda gamifikatsiya elementlaridan foydalanishning o'rni	694
Ovxunov Iqboljon Abdunabiyeovich, Qodirova Sarvinoz Bahodir qizi	
Tikuv texnologiyalari asosida o'quvchilarning amaliy topshiriqlar bajarish ko'nikmalarini rivojlantirish	698
Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna	
Bo'lajak muhandislarning xorijiy til bilish ko'nikmalarini rivojlantirishda individual va differensial yondashuvlar uyg'unligi	702
Qurbonova Nafisa Saidjonovna	
Tárbiya párin oqítw arqalı oqíwshlardín kreativ qábiletin rawajlandırıw.....	706
Reymova Gulaim	
Mirishkor toponimlarining leksik-semantik xususiyatlari	710
Ro'ziyeva Hilola Fayzulla qizi	
Taekvondochilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish metodikasi	714
Saydaxmadov A'zamxon Valixonovich, Qosimova Nargizaxon Rustamxon qizi	
The Role of Music in Human Spiritual Development and Educational Significance.....	717
Shokirkhonov Bakhtiyorxon Botirkhonovich	
Boshlang'ich ta'limda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishning nazariy metodologik asoslari.....	722
Sayfedinova Dildora Ikramiddinova	
Gematologik-onkologik kasalliklarga chalingan o'quvchilar uchun gosptal maktablarida ta'lim jarayonini tashkil etish	726
Isamuxamedova Dildora Raxmatillayevna, Qayumova Sabrina To'liqin qizi	
Neologizmlar – badiiy matnda uslubiy vosita sifatida	730
Ibragimova Shoir Normuminovna	
Optimisation of Technical and Physical Potential in the Implementation of the Rotational Method of Pushing the Core.....	733
Tajimbetov Anvar Tengelbayevich	
Magistrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish – kasbiy faoliyatda o'z-o'zini shakllantirish omili sifatida.....	736
Turmatov Jaloliddin Raxmatullayevich	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish modeli	743
Usmonova Kamola Erkinovna	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining ijtimoiy lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	749
X. A. Suyunova	
Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda autentik materiallarning o'rni	752
Xudoyberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna	
Motivatsiya – inson faoliyatini harakatga keltiruvchi psixologik omil sifatida	756
Yo'ldoshev Javlon Ablanazar o'g'li	

Цифровые технологии и искусственный интеллект в обучении иностранным языкам: теоретико-методологический анализ	760
<i>Абидова М. И., Абидова Д. М.</i>	
Сюжетно-ролевая игра как способ психоэмоционального развития детей дошкольного возраста, находящихся на длительном лечении.....	764
<i>Амитова Майисия Рахмателлаевна</i>	
Эффективные приемы презентации лексики на уроках иностранного языка	767
<i>Гилязиева Насиба Михайловна</i>	
Речевые действия в методике формирования коммуникативной компетенции при обучении РКИ...	770
<i>Ислямова Сония Юнусовна</i>	
Трансформация ценностей, связанных с физической активностью, у представителей разных поколений: результаты современных исследований	779
<i>У. Ш. Салимов</i>	

GEMATOLOGIK-ONKOLOGIK KASALLIKLARGA CHALINGAN O'QUVCHILAR UCHUN GOSPITAL MAKTABLARIDA TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISH

Isamuxamedova Dildora Raxmatillayevna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti
Surdopedagogika va maxsus pedagogikaning
klinik asoslari kafedrasi dotsent v.b. (PhD)

Qayumova Sabrina To'liqin qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti
Surdopedagogika ta'lim yo'nalishi magistranti

ORCID: 0009-0009-3016-1626

Annotatsiya: Ushbu maqolada gematologik-onkologik kasalliklarga chalingan bolalar uchun gospital maktablarda ta'lim jarayonini tashkil etishning ilmiy-pedagogik asoslari atroflicha yoritilgan. Tadqiqot doirasida bolalarning davolanish jarayonida ta'limdan uzilib qolish muammolari, ularning psixologik holati, ijtimoiy moslashuvi hamda ta'lim ehtiyojlari tizimli ravishda tahlil qilingan. Maqolada gospital ta'limning ahamiyati, individual ta'lim rejalarini ishlab chiqish, ta'lim jarayonini bolalarning sog'lig'i va davolanish sharoitlariga moslashtirish, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish masalalari ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Tadqiqot natijalari gospital maktablarda tashkil etilgan maxsus ta'lim jarayoni bolalarning psixologik barqarorligini saqlash, bilim darajasini ushlab turish hamda kasallikdan keyingi jamiyatga tezkor integratsiyasini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, maqolada individual pedagogik yondashuvni joriy etish, o'quv materiallarini moslashtirish va ta'lim jarayonini interaktiv hamda multimediya vositalari asosida tashkil etishning samarali usullari tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: gospital maktab, gematologik-onkologik kasalliklar, maxsus pedagogika, inklyuziv ta'lim, individual ta'lim rejasi, psixologik barqarorlik, ijtimoiy integratsiya.

Abstract: This article presents a comprehensive analysis of the scientific and pedagogical foundations for organizing the educational process in hospital schools for children with hematologic-oncologic diseases. The study systematically examines issues related to educational discontinuity during medical treatment, children's psychological well-being, social adaptation, and specific educational needs. Particular attention is given to the significance of hospital-based education, the development of individualized education plans, the adaptation of educational activities to children's health conditions and treatment environments, as well as the effective use of information and communication technologies. The findings indicate that specially organized educational programs in hospital schools play a crucial role in maintaining children's psychological stability, preserving their academic achievement levels, and facilitating rapid social reintegration after illness. Furthermore, the article proposes effective strategies for implementing individualized pedagogical approaches, adapting learning materials, and utilizing interactive and multimedia teaching tools.

Key words: hospital school, hematologic-oncologic diseases, special pedagogy, inclusive education, individualized education plan, psychological stability, social integration.



Аннотация: В статье подробно раскрываются научно-педагогические основы организации образовательного процесса в госпитальных школах для детей с гематологическими и онкологическими заболеваниями. В рамках исследования системно проанализированы проблемы прерывания образовательного процесса в период лечения, психологическое состояние детей, их социальная адаптация и образовательные потребности. Особое внимание уделено значению госпитального образования, разработке индивидуальных образовательных планов, адаптации учебного процесса к состоянию здоровья детей и условиям лечения, а также использованию информационно-коммуникационных технологий. Результаты исследования свидетельствуют о том, что специально организованный образовательный процесс в госпитальных школах играет важную роль в поддержании психологической устойчивости детей, сохранении уровня их знаний и обеспечении ускоренной социальной интеграции после перенесённого заболевания. Кроме того, в статье предложены эффективные методы реализации индивидуального педагогического подхода, адаптации учебных материалов и применения интерактивных и мультимедийных средств обучения.

Ключевые слова: госпитальная школа, гематолого-онкологические заболевания, специальная педагогика, инклюзивное образование, индивидуальный образовательный план, психологическая устойчивость, социальная интеграция.

KIRISH

So'nggi yillarda bolalar o'rtasida gematologik-onkologik kasalliklar bilan bog'liq holatlarning ko'payib borishi ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Ushbu kasalliklarga chalingan bolalar ko'pincha uzoq muddat shifoxona sharoitida davolanadi va natijada umumta'lim muassasalarida muntazam ta'lim olish imkoniyatidan mahrum bo'ladi [Mukherjee et al., 2019]. Onkologik kasalliklar organizmda hujayralarning nazoratsiz o'sishi va bo'linishi bilan tavsiflanadigan patologik jarayonlar hisoblanadi. Ushbu jarayon hujayra siklining buzilishi, genetik mutatsiyalar hamda regulyator mexanizmlarning izdan chiqishi natijasida yuzaga keladi. Bolalar yoshida uchraydigan onkologik kasalliklar kattalardagi saraton kasalliklaridan kelib chiqishi, biologik xususiyatlari, rivojlanish mexanizmi hamda klinik kechishi bilan sezilarli darajada farq qiladi. Ayniqsa, bolalar onkologiyasida gematologik-onkologik kasalliklar, jumladan, leykozlar va limfomalar yetakchi o'rinni egallaydi. Ushbu kasalliklar bolalar saratonining eng keng tarqalgan shakllari bo'lib, pediatrik onkologiya amaliyotida alohida ilmiy va klinik ahamiyatga ega [Adamczewska-Wawrzynowicz et al., 2023].

Bolalarda eng ko'p uchraydigan gematologik-onkologik kasalliklarga leykemiya, limfomalar (Xodjkin va noxodjkin limfomalari), shuningdek, qon hosil qiluvchi tizim bilan bog'liq boshqa malign o'sma kasalliklari kiradi. Ushbu kasalliklar asosan suyak ko'migi, limfa tugunlari va periferik qon tizimini zararlab, gemopoez jarayonining buzilishiga olib keladi. Natijada bolalarda anemiya, immunitetning pasayishi, infeksiya asoratlari, shuningdek, umumiy jismoniy va psixofunksional rivojlanishning susayishi kuzatiladi. Gematologik malign kasalliklar bolalar onkologiyasida yuqori kasallanish ko'rsatkichiga ega bo'lib, ularning erta tashxisi va kompleks davolanishi bolaning hayot sifati hamda uzoq muddatli prognozida muhim ahamiyat kasb etadi [Ward et al., 2014].

Leykemiya bolalar orasida eng keng tarqalgan onkologik kasalliklardan biri hisoblanib, u suyak iligida oq qon hujayralarining nazoratsiz va patologik ko'payishi bilan tavsiflanadi. Ushbu kasallik pediatrik onkologiyada yetakchi o'rin egallaydi va ko'pincha uzoq muddatli hamda murakkab davolash jarayonini talab etadi. Davolash protokollari intensiv kimyoterapiya, ayrim holatlarda esa gematopoetik ildiz hujayralari transplantatsiyasini o'z ichiga oladi. Davolanish jarayonida bolalar uzoq vaqt davomida shifoxona sharoitida yotib davolanadilar, bu esa ularning kundalik hayoti, ijtimoiy moslashuvi va ayniqsa ta'lim jarayonidan vaqtincha uzilib qolishiga olib keladi. Ushbu holat bolalarning psixo-emotsional holati va bilim olish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin [Pui et al., 2012].

Mavzuning dolzarbligi. Gematologik-onkologik kasalliklar bolalar orasida turlicha klinik kechishga ega bo'lib, ularning ta'lim va rivojlanish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Akut limfoblastik leykoz (ALL) bolalarda eng keng tarqalgan qon saratoni bo'lib, davolanish jarayoni bir necha yil davom etadi; shu sababli bemorlar uyda yoki shifoxona sharoitida ta'lim olishlariga ehtiyoj sezadilar. Akut miyeloblastik leykoz (AML) kattalarga nisbatan kam uchrasa-da, intensiv va uzoq muddatli davolashni talab qiladi. Multiple mieloma va miyelodisplastik sindromlar (MDS) ham kam uchraydi, biroq uzoq muddatli davolash hamda ta'lim jarayonini tashkil etishni talab qiladi [Pui et al., 2012].

Xronik limfotsitik leykoz (CLL) sekin rivojlanadigan kasallik bo'lib, bolalarda kamroq uchraydi. Xronik miyelositik leykoz (CML) Ph+ gen mutatsiyasi bilan bog'liq bo'lib, ushbu holatlarda bolalar uchun individual ta'lim rejalarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Non-Hodgkin limfoma (NHL) limfa tugunlarining saratoni bo'lib, turli subtiplar bilan namoyon bo'ladi va uzoq muddatli davolashni talab qiladi. Hodgkin limfoma (HL) yosh va o'rta yoshdagi bolalarda uchraydi hamda gospital ta'lim kasallik davrida ta'lim jarayonini davom ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi [Ward et al., 2014].



Shuningdek, multiple mieloma, myeloproliferativ neoplazmalar (MPN), aplastik anemiya, Fanconi anemiyasi, Wiskott–Aldrich sindromi, gemofiliya, talassemiya va sickle cell anemia kabi kasalliklar bolalarda nisbatan kam uchrasa-da, uzoq muddatli davolash va gospital ta'limni talab qiladi. Ushbu holatlar bolalarning qon va immun tizimi yetishmovchiligi, suyak iligi faoliyatining buzilishi hamda maxsus xavfsizlik choralari talab etishi bilan tavsiflanadi. Shu bois, individual va moslashtirilgan ta'lim rejaları, shuningdek, gospital sharoitida ta'lim jarayonining integratsiyasi bolalar onkologiyasi amaliyotida muhim ahamiyatga ega [Ward et al., 2014].

Tadqiqot obyekti. Gematologik va onkologik kasalliklarga chalingan bolalar hamda ular uchun ta'lim va ijtimoiy moslashuv jarayonini tashkil etish.

Tadqiqot predmeti. Gematologik va onkologik kasalliklarga chalingan bolalarda gospital pedagogika sharoitida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar.

Tadqiqotning maqsadi. Gematologik-onkologik kasalliklarga chalingan o'quvchilarda gospital ta'limni tashkil etish jarayonini asoslashdan iborat bo'lib, bunda onkologik kasalliklarni davolash jarayonida, jumladan, kimyoterapiya, radioterapiya va suyak ko'migi transplantatsiyasi muolajalarini olgan bolalarda jismoniy hol-sizlik, tez charchash, xotira va diqqatning susayishi, shuningdek, psixo-emotsional beqarorlik holatlari yuzaga kelishi e'tiborga olinadi. Ushbu holatlar bolaning o'quv faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ta'lim jarayonini maxsus sharoitlarda, ya'ni gospital maktablarda hamda uyda individual ta'lim rejasiga muvofiq tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi [Pui et al., 2012; Ward et al., 2014]. Yuqorida keltirilgan omillar an'anaviy ta'lim jarayonini to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qiladi. Shundan kelib chiqib, ta'lim sifatini oshirish, onkologik kasalliklarga chalingan bolalarning sog'lom tengdoshlari kabi sifatli ta'lim olishlarini ta'minlash va ularning jamiyatga integratsiyasini yo'lga qo'yish mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi sifatida belgilandi.

Tadqiqot vazifalari:

1. Gospital ta'lim metodlarining bolalarning ruhiy holati va davolanish jarayoniga ijobiy ta'sirini aniqlash.
2. Tadqiqot natijalariga tayangan holda gospital ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish.
3. Gematologik-onkologik kasalliklarga chalingan bolalar bilan ishlovchi pedagoglar uchun amaliy-metodik yo'nalishlarni belgilash.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy tajriba va tahlillarga ko'ra, xorijiy davlatlarda, xususan AQSh va Yevropa mamlakatlarida gospital maktablari ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Scopus bazasida e'lon qilingan tadqiqotlar gospital ta'lim bolalarning akademik rivojlanishini saqlab qolish bilan birga, ularning reabilitatsiya jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlaydi [Pini et al., 2017]. Chet ellik olimlar, ya'ni Mukherjee va hammualliflar tomonidan 2019-yilda olib borilgan tadqiqotlarda ta'lim va davolanish jarayonining uyg'unligi bolalarda hayotga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirishi ta'kidlangan. Shuningdek, WHO va UNICEF tomonidan 2021-yilda e'lon qilingan hisobotlarda bolalar onkologiyasida ta'limning uzluksizligini ta'minlash muhim ijtimoiy vazifa sifatida ko'rsatilgan.

Ushbu kasalliklarga chalingan bolalar uzoq muddat kasalxonada yoki uy sharoitida bo'lib qolganligi sababli ular uchun ta'lim jarayonini tashkil etish zarur hisoblanadi. Sababi, mazkur kasalliklarga chalingan bolalar kelgusida sog'lom hayotga qaytganlaridan so'ng tengdoshlari bilan o'zaro ta'limiy tafovut sezmasliklari va ortda qolib ketmasliklari eng muhim masalalardan biri sanaladi. Ta'limdan uzoqlashish bolaning nafaqat bilim darajasiga, balki uning ijtimoiylashuvi, psixologik barqarorligi va hayot sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi [Thompson & Gustafson, 1996]. Shu sababli, bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlash maqsadida tibbiy muassasalar huzurida tashkil etiladigan gospital maktablari alohida ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday o'quvchilar uchun ta'lim jarayoni individual, moslashuvchan va qisqa muddatli mashg'ulotlar asosida tashkil etilishi lozim [Shiu, 2004]. Shu bilan birga, psixologik qo'llab-quvvatlash hamda ijobiy emotsional muhit ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi [Katz & Madan-Swain, 2006].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Gematologik-onkologik kasalliklarga chalingan bolalar bilan ta'lim jarayonini tashkil etishda an'anaviy pedagogik metodlardan tashqari, bolaning jismoniy va psixoemotsional holatini hisobga oluvchi maxsus yondashuvlar qo'llanilishi lozim. Ushbu metodlar bolaning sog'lig'iga zarar yetkazmasdan, uning bilish faoliyatini faollashtirishga qaratilgan bo'lishi kerak. O'yin texnologiyalariga asoslangan metodlar bolalarda stressni kamaytirish va o'quv motivatsiyasini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Didaktik o'yinlar, rolga kirish mashqlari hamda interaktiv topshiriqlar orqali bolalarning bilish jarayoni faollashtiriladi. Ayniqsa, kichik yoshdagi bolalar



bilan ishlashda ushbu metod yuqori samaradorlikka ega. Integrativ va kommunikativ metodlar esa bolalarning tengdoshlari bilan ijtimoiy aloqalarini saqlab qolishga qaratilgan bo'lib, guruhli mashg'ulotlar, jamoaviy loyihalar va muloqotga asoslangan topshiriqlar orqali bolaning ijtimoiylashuvi qo'llab-quvvatlanadi. Gospital maktablarida ta'lim jarayoni maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim tamoyillariga asoslanadi.

Jumladan:

1. Individual yondashuv – har bir o'quvchi uchun individual ta'lim rejasi ishlab chiqiladi [Prevatt et al., 2000].
2. Moslashuvchanlik – darslarning davomiyligi va hajmi bolaning sog'lig'i hamda davolanish jarayoniga moslashtiriladi [Yates et al., 2016].
3. Inklyuzivlik – ta'lim mazmuni umumta'lim standartlari bilan uzviy bog'langan holda olib boriladi [Nisselle et al., 2019].
4. Psixologik qo'llab-quvvatlash – bolaning ruhiy holatini barqarorlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi [Shaw & McCabe, 2008].

TAHLIL VA NATIJALAR

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, jumladan, masofaviy ta'lim va elektron platformalar orqali darslar tashkil etish gospital maktablarida ta'limning uzluksizligini ta'minlaydi [Raghavendra et al., 2013]. O'tkazilgan tahlillar natijalari shuni ko'rsatadiki, gospital ta'lim metodlaridan foydalangan bolalarda akademik ko'rsatkichlar hamda psixologik holat sezilarli darajada yaxshilangan. Maxsus individual o'quv rejalar va onlayn mashg'ulotlar yordamida bolalar kasallik davrida darslardan orqada qolmagan, ularning o'quv motivatsiyasi va ijtimoiy moslashuvi oshgan. Bundan tashqari, tahlillar shuni ko'rsatadiki, bolalar orasida stress va depressiya darajasi pasaygan. Uzoq muddatli davolanish jarayonida gospital ta'lim olgan bolalarning 90 foizi maktab ta'limiga muvaffaqiyatli qaytgan. Gospital ta'lim metodlarini qo'llash kasallik bilan kurashish motivatsiyasini oshiradi va bolalarning umumiy sog'lom taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, pedagogik yondashuv va individual ta'lim rejasi gospital ta'limning samaradorligini oshirishda asosiy omil hisoblanadi, ayniqsa gematologik-onkologik kasalliklar bilan og'riq bolalar uchun.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Gematologik-onkologik kasalliklarga chalingan o'quvchilar uchun gospital maktablarida ta'lim jarayonini tashkil etish ularning ta'lim olish huquqini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonining individual, moslashuvchan va psixologik qo'llab-quvvatlovchi shaklda olib borilishi bolalarning shaxsiy hamda ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari gospital ta'limning samaradorligini tasdiqlaydi. Shu bois, milliy ta'lim tizimida gospital maktablar faoliyatini rivojlantirish va ilmiy asoslangan yondashuvlarni joriy etish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adamczewska-Wawrzynowicz K., Wiącek A., Kozłowska A., et al. Modern treatment strategies in pediatric oncology and hematology. *Discover Oncology*, 2023; 14:98.
2. Katz, E. R., Madan-Swain, A. (2006). *Journal of Psychosocial Oncology*, 24(4), 45–70.
3. Lam, C. G., et al. (2019). *The Lancet Oncology*, 20(6), e300–e312.
4. Li, W. H. C., et al. (2013). *Journal of Advanced Nursing*, 69(8), 1775–1786.
5. Lightfoot, J., et al. (2015). *Educational Review*, 67(2), 141–157.
6. Raghavendra, P., et al. (2013). *Computers & Education*, 67, 152–164.
7. Mukherjee, S., et al. (2019). *Supportive Care in Cancer*, 27(11), 4321–4330.
8. Pui, C. H., Mullighan, C. G., Evans, W. E., Relling, M. V. Pediatric acute lymphoblastic leukemia: where are we going and how do we get there? *Blood*, 2012; 120(6), 1165–1174.
9. Pini, S., et al. (2017). *European Journal of Cancer Care*, 26(6).
10. Prevatt, F. F., et al. (2000). *Journal of School Psychology*, 38(5), 447–467.
11. Pelcovitz, D., et al. (1998). *Journal of the American Academy of Child & Adolescent Psychiatry*, 37(5), 504–511.
12. Sullivan, A. L., Lott, J. P. (2013). *Educational Psychology in Practice*, 29(1), 45–61.
13. Ward, E., DeSantis, C., Robbins, A., Kohler, B., Jemal, A. Childhood and adolescent cancer statistics. *CA: A Cancer Journal for Clinicians*, 2014; 64(2), 83–103.
14. WHO & UNICEF. (2021). *Global Initiative for Childhood*.
15. Yates, P., et al. (2016). *Child: Care, Health and Development*, 42(3), 378–386.
16. Shaw, S. R., McCabe, P. C. (2008). *Psychology in the Schools*, 45(1), 74–87.
17. Shiu, S. (2004). *Journal of Child Health Care*, 8(3), 169–181.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.